

# **O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR SIYOSATI VA SPORT VAZIRLIGI**

## **JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO‘YICHA MUTAXASSISLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI SAMARQAND FILIALI**



**“Pedagogning professional kompetentligi va mahorati”**

**“Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi” yo‘nalishi bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim  
muassasalari pedagog kadrlarini malakasini oshirish kursi uchun**

**O‘qituvchi: Yaxyayeva Sojida Abduraximovna**

# MAVZU: PEDAGOG PROFESSIONAL KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Reja:



Pedagog professional kompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari



“Kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalarining mazmun-mohiyati

**Kompetensiya  
nima?**

**“Kompetensiya”** tushunchasi lotincha **“competere”** degan soʻzdan olingan boʻlib, **“loyiq”**, **“mos kelmoq”** maʼnosini anglatadi.



1

**Kompetensiya** –  
olingan nazariy bilim,  
amaliy ko‘nikma,  
malaka va shaxsiy  
fazilatlar majmuasini  
amaliyotga mustaqil  
va ijodiy qo‘llay olish  
layoqati

## **Kompetentlik va kompetensiya tushunchasi**

2

**Kompetentlik**  
deganda, aniq  
vaziyatda  
kompetensiyani  
namoyon qila olish  
qobiliyati  
tushuniladi.

# KOMPETENSIYA TURLARI

**Shaxsiy  
kompetensiya**



**Umummadaniy  
kompetensiya**



**Kompetensiya  
turlari**

**Kasbiy  
kompetensiya**



**Maxsus  
kompetensiya**



# Shaxsiy kompetensiya:

- insonparvarvarlik;
- bolalarni sevishi va mehribonlik;
- adolatli bo‘lish;
- talabchanlik;
- bag‘rikenglik;
- mas’uliyatlilik va h.k.



# Kasbiy kompetensiya:

- ta'lim berish va o'rganish uchun sharoit yaratish;
- tegishli sport turi uslubiyotini takomillashtirish;
- ta'lim jarayonini boshqarish;
- o'quvchilar bilimi va yutuqlarini obyektiv baholash;
- o'quvchilarda motivatsiya uyg'otish va ularni qo'llab-quvvatlash;
- pedagogika va psixologiyani bilish;
- o'z bilimini doimiy takomillashtirish va h.k.



## Umummadaniy kompetensiya:

- kasbiy etika va estetikaga rioya qilish;
- madaniyatli bo‘lish;
- umuminsoniy qadriyatlarga egalik;
- mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish;
- boshqa millatlarning madaniyatini hurmat qilish va h.k.





## **Maxsus kompetensiya:**

- sport turining nazariyasini bilish;
- sport turining tarixi va rivojlanish bosqichlarini bilish;
- sport turining texnikasini o'quvchilarga o'rgatish;
- sport turining taktikasini o'rgatish va h.k.



- **Kompetentlik** deganda, aniq vaziyatda kompetensiyani namoyon qila olish qobiliyati tushuniladi. O‘qituvchining mavjud kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan faoliyat **kompetensiyaviy yondashuv** deyiladi.



- **Kasbiy kompetentlik**–o‘qituvchi tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishidan iborat.




Avvalo, o‘qituvchida o‘zining kasbiy-shaxsiy faoliyatiga nisbatan kuchli ehtiyoj bo‘lishi zarur.



**Ehtiyoj bu** - organizm faoliyati, inson shaxsiyati, ijtimoiy faoliyati va umuman jamiyat uchun kerak bo'lgan biror narsaning zarurligi yoki yetishmasligini, har qanday faollikning ichki undovchisi. Ehtiyojning muhim xususiyati uning dinamik xarakterga ega ekanligi, o'zgaruvchanligi, muayyan ehtiyojning qondirilishi natijasida, yana yangi ehtiyojning paydo bo'lishidir. Shunday ekan, o'qituvchida ham kasbiy kompetentlikni yuqori darajada egallashga nisbatan, doimiy ehtiyoj bo'lishi talab etiladi.



**Buning uchun o‘qituvchilarda o‘z kasbiy-shaxsiy kompetentligini rivojlantirish ehtiyoji davlat va jamiyat ehtiyojiga mos kelishi lozim. O‘qituvchini kasbiy-shaxsiy faoliyatida qo‘yidagi ehtiyojlarda nomoyon bo‘lishi mumkin:**



**Kasbiy-pedagogik kompetentlikka ega bo‘lishda, o‘z ustida uzluksiz ishlash, o‘zini-o‘zi rivojlantirish muhim ahamiyatga ega**




**O‘qituvchidan kasbiy-shaxsiy faoliyati yo‘nalishi bo‘yicha o‘z ustida ishlashi irodaviy zo‘r berish, aqliy va jismoniy zo‘riqishni talab etadigan individual psixologik xususiyatdan iborat.**







**O‘z ustida ishlash  
quyidagilarda  
ko‘rinadi:**




**muayyan shaxsiy dunyoqarashni  
shakllantirish**




**ijobiy sifatlarni o‘zlashtirish**




**kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish**



**faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashish**



**kasbiy bilim, ko‘nikma va malakani takomillashtirib  
borish**



# O'zini-o'zi tahlil qilish va baholash


O'qituvchining  
o'z pedagogik faoliyatini  
to'g'ri baholashi, uni  
kasbiy-shaxsiy  
faoliyatda  
muvaffaqiyatlar tomon  
yetaklaydi.



# O‘zini o‘zi samarali baholash omillari

- 1) O‘zini tushunish va o‘zi haqida aniq ma’lumotlarga ega bo‘lish;
- 2) Shaxs sifatida o‘z qadr-qimmatini, o‘zining kasbiy-shaxsiy faoliyatidagi yutuq va kamchiliklarini to‘g‘ri aniqlash;
- 3) O‘zining o‘qituvchilik faoliyatini tahlil qilish asosida o‘ziga bergan bahosining, unga nisbatan tashqaridan berilayotgan baholarga mos kelishi o‘ta muhim ahamiyatga ega;





- **E'tiborlaringiz uchun rahmat!**

- **rasmiy veb-sayt**

- **<http://www.samsportedu.uz>**

- **maxsus rasmiy telegram kanal**

- **<https://t.me/sfmalaka>**